
Obodlik, toza va pokizalik bizning oliyjanob xalqimizga xos fazilat | Tumanimiz bo'ylab keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda

Xalqimizda obodlik, toza-ozodalik eng muhim amallardan hisoblanadi. Chunki poklik bor joyda fayzbaraka, unum bo'ladi. Umumxalq hasharlari esa azaliy qadriyatlarimiz bardavomligini ta'minlaydi. Eng muhimi, hashar aholi o'rtasida hamjihatlikni, insonparvarlikni mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligini 32 yilligi bayramini munosib kutib olish maqsadida Furqat tumanida ham barcha qishloq va mahallalarda keng qamrovli obodonlashtirish tadbirlari tashkil etilmoqda.

Obodonlashtirish ishlari jarayonida mahallalar, hovlilar atrofi, ziyoratgoh va qabristonlar, sayilgochlarni tartibga keltirish, chiqindilarni belgilangan joyga chiqarib tashlash, ko'chalarni ta'mirlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Katta-yu kichik aholi vakillari ushbu ezgu tadbirda faol qatnashmoqda.

2023-07-25 08:47:55